



NEOLIT DAVRI YODGORLIKLARINI MANBALARDA  
O'RGANISH VA ZARAFSON VODIYSIDA O'TKAZILGAN  
ARXEOLOGIK TADQIQOTLAR

Tojiyev Sherzod Azamat o'g'li  
Sharof Rashidov nomli Samarqand  
davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada neolit davri yodgorliklarining ahamiyatini manbalarda bog'lab o'rganish. Shu bilan birgalikda adabiyotlardagi ma'lumotlarni taqqoslash, yodgorliklarning o'rganishdagi fikr mulohazalarning turlichaligi bir to'xtamga kelinmaganligi haqida

**Kalit so'zlar:** Neolit yodgorliklari, Kaltaminor, Hisor, Joytun, Sarmishsoy.

So'nggi yillarda jahonda xususan mamlakatimizda neolit davri yodgorliklarini ko'plab topilishi ularning o'ziga xos xususiyatlari olingan topilmalar, qatlamlari jihatdan farqlanishi, jahonda Chatal-Guyuk, Xo'jilar topilmasining mamlakatimizda Hisor, Kaltaminor, Joytun, Sazag'on, Markaziy Farg'ona kabilarning topilishi mazkur holatda ushbu yodgorliklarning Breydved, Jeyms Mellaart, Djejms, Asqarov, Sagdullaev, Islomov, Tolstov, G'ulomov, Messanlarning yodgorlikni o'rganishdagi ma'lumotlarni tahlil qilarkanmiz ular o'zlarining arxeologik izlanishlaridan kelib chiqqan holda har bir yodgorlikka tavsif berib o'tadi. Bularning bironta ma'lumotini noto'g'ri deb bo'lmaydi chunki jahon arxeologlari o'zimizning arxeologlar turli davrlarda izlanishlar olib borganligidan kelib chiqqan holda tahlil qilishimiz o'rinlidir. Bizda manbalarda ma'lumki O'zbekiston neolit davri yodgorliklari deganda ko'z oldimizga o'sha mashhur uch yodgorlik g'aldalanadi. Xususan Kaltaminor, Hisor, Joytun shu yodgorliklar misolida yoritib o'tadigan bo'lsak Kaltaminor madaniyati N.A. Egamberdiyevaning ma'lumotlariga qaraganda bu madaniyat o'tgan asrning 30-40- yillarda S.P. Tolstov tomonidan Amudaryoning quyi havzasida topiladi va fanga Kaltaminor madaniyati nomi bilan kirgan. Unga Amudaryoning Oqchadaryo o'zanidan chiqqan qadimgi Kaltaminor kanali etaklaridan topilgani uchun shu nom berilgan. Kaltaminor madaniyati asosan O'zbekiston hududida tarqalganligi sababli quyidagi shu haqda Oqchadaryo havzasidan ko'plab neolit davriga oid yodgorliklar topilgan bo'lib faqat 3-4 ta manzilgohning madaniy qatlami buzilmasdan saqlanib qolgan. [1] Bular Jonbos-4, Qavat-7, Tolstov manzilgohi, Tumek Kichidjik manzilgohlaridir. Kaltaminor madaniyatining 3 bosqichi aniqlandi-Daryolisoy (mil.avv VI-IV ming yilliklar), Jonbos (mil.avv IV-III ming yilliklar), Saksoyul (mil.avv III ming yillik oxiri-II ming yillik boshlariga oid).

G'ulomov Ya, Al-baum L.I va Gerasimov M.larning ma'lumotlariga qaraganda bu yodgorlik O'rta Osiyo o'lkasining g'arbiy va shimoliy-g'arbiy tomonlarida keng tarqalgan





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



bo'lib, uning chegarasi Ural daryosi hamda Kaspiy dengizi bilan tutashgan deb aytib o'tadi. Janubda Qoraqum va Qizilqum etaklarida, sharqda esa Orol dengizi shimoli-sharq va janub tomonlarda quyi Sirdaryoga borib Kaltaminor madaniyati asos solgan kishilar qadimda ko'l va daryolar bo'ylarida, qamishzorlar yonida yashagan. Joylarning tabiiy sharoitiga ko'ra, Kaltaminor madaniyatini yaratgan kishilar asosan yovvoyi hayvonlarni ov qilib, ovchilik va baliqchilik bilan kun kechirgan. Mevali daraxtlar ko'p bo'lganligi uchun ham ularning xo'jalik hayotlarida termachilik ham katta o'rin egallagan. Kaltaminor qabilalari xo'jaligida qisman chorvachilik xo'jaligi ham bo'lgan. Bu atxeoglar ham Tolstov o'rganganini aytib o'tadi va Oqchadaryo havzasidagi bir necha manzilda madaniy qatlamlar saqlangan bo'lib, ulardan Jonbos-4 makondir. Manzilgohda chaqmoqtoshdan yasalgan minglab mehnat qurollari, sopol parchalari, hayvon suyaklari va baliqlarning suyaklari topilgan. [2]

U yerni o'rganish jarayonida yarim yerto'la shaklidagi kulba(chayla)ga duch keladi. Kulbaning markaziy qismida katta o'choq qoldig'i topilgan. Bu o'choq atrofida yuzga yaqin mayda o'choq qoldiqlari joylashgan. Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib Tolstov katta o'choqni muqaddas olov saqlanadigan otashqada, uning atrofidagi o'choqlar esa oilalarning o'choqlari bo'lgan degan fikrni aytib o'tadi. Kulbaning maydoni 300m<sup>2</sup> bo'lib, bu yerda 120-125 kishi istiqomat qilgan. U katta urug' jamoasining makoni bo'lgan. Kaltaminor madaniyati jamoalari sopol ishlab chiqarishga usta bo'lgan. Sopol yasashda ham kulolchilik charxidan foydalanish o'zlashtirilmagan bo'lsa-da, qurollar sopol buyumlar yasashning ibtidoiy usullarini ko'nikma sifatida egallaganlar. Idishlar tayyorlashda loyga yantoq va qamishning toza kulidan qo'shishgan. Sopol qozon loylariga esa maydalangan tosh qo'shishgan. Bu qo'shilmalar sopol idishlarning mustahkam chiqishini, olovga tushganida o'zida issiqlikni uzoq vaqt saqlab qolishni ta'minlagan. Sopol buyumlarning sirtiga odatda naqsh berilgan. Naqshlar chizma uslubida ishlangan. Bular turli geometrik shakllarda o'z aksini topgan. Naqshlar uchi uchli yog'och yoki suyak pichoq yordamida ilon izi, romb, uchburchak, egri chiziq va boshqa shakllarda chizilgan. So'nggi bosqichiga kelganda ba'zi sopollarning gardishiga rangli gul naqshlar chizilgan. Dastlabki bosqichida esa sopol buyumlar aksariyat hollarda tuxumsimon shaklda bo'lgan. Ammo yana so'nggi bosqichda (O'zboy)da tuxumsimon, tosh dumaloq idishlar o'rnini tuvaksimon, osti tekis idishlar egallaydi. Dastlab idishlar mato xalta qoliplarida tayyorlangan bo'lsa, endi loy lentalarda qo'lda yasalgan, idishlarda jo'mraklar ham paydo bo'lgan. Ular bir qavatli xumdonlarda pishirilgan. Urug' jamoalari tabiat kuchlari oldida ojiz edi, suv va ov orqasidan ergashib yurganlar. Kulbalari qurib borayotgan daryo yoqalarida, ko'l bo'ylarida qumlar ustida qad ko'targan. Daryo va ko'l suvlarining o'zgarishi bilan Kaltaminorliklar jamoasi ham o'z manzilgohlarini o'zgartirganlar.

O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) ma'lumotlariga ko'ra asosan madaniyatni yurtimizda neolit davriga oid ilk topilgan arxeologik madaniyat (mil.avv.7-3 ming yillik). Shu nomdagi ko'l yonida joylashgan, 1939-1940 va 1945- yillar Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi tekshirgan. Qo'shimcha tariqasida Qizilqum, Yuqori



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



O'zboy, Mohondaryo, Orolning shimoli-sharqiy bo'ylarida, Qozog'iston va sharqiy Kaspiy, ya'ni Balxan va Manqishloq hududlarigacha tarqalgan. Albatta, bu juda katta hududda yagona bir oilaga oid odamlar yashagan emas, bu yerlarda bir-biriga yaqin bo'lgan qabilalar yashagan deyish to'g'ri keladi. Yaqinlik asosan tosh qurollarda yaxshi ko'rinadi. Tosh qurollarni yasash texnikasi va uning tiplarida o'xshashlik farqlari esa sopol idishlarda, ya'ni uning bezaklarida - bezak buyumlarida, taqinchoqlarda ko'rinadi. Asosiy qurollarning o'xshashligi va farqlarini saqlab qolgan qurollar -shu vohalarda bir-biriga o'xshash, bir xil turmush tarziga ega bo'lgan urug'lar bo'lganini ko'rsatadi. Bular Oqchadaryo, quyi Zarafshon, Lavlakon, yuqori O'zboy, Ustyurt guruhlaridan iborat. Shu hududlarda yashagan neolit odamlari 7-3 ming yillikda yashab ovchilik, baliqchilik, terimchilik bilan tirikchilik o'tkazishgan. Ovchilik, baliqchilik, terimchilik bilan bog'liq qurollarni ishlash texnikasi neolit davrida eng cho'qqiga chiqqan davr hisoblanadi. Bog'liqlar, kesuvchi, teshuvchi qurollar, o'q-yoylar, kamon o'qlari va shunga o'xshash qurollarni yasash eng takomillashgan davr hisoblanadi. Yuqorida aytib o'tilganidek sopol buyumlar ishlab chiqish texnikasi paydo bo'lganini ko'ramiz aynan davrlarga ham shunga qarab ajratganlar. Idishlar qo'lda hali loylikida yo'g'och bilan chizib, daryo va dengiz to'lqiniga, archa ignalariga o'xshash bezak berilgan. Ularning tagi yassi bo'masdan, qumga botirib qo'yishga mo'ljallangan konus shaklida bo'lgan. Sopol idishlarning ixtiro etilishi Kaltaminor aholisining ovqat pishirishini osonlashtirgan. Ular o'choq yasab, qozonning tagiga olov yoqib ovqat pishirishgan. Hattoki ular ovqatni idishlarda quyib yeyishgan bu juda katta ixtiro bo'lib, kishilik tarixida faqat neolit davridan boshlab shunday yashash imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Hisor madaniyatiga keladigan bo'lsak N.A. Egamberdievaning manbasida keltirilgan ma'lumotni ko'rib chiqamiz. Xususan bu yodgorlik Tojikistonning tog'li mintaqalarida keng tarqalgan. Hisor madaniyati tog'li mintaqalarda yashab, asosan hayvon ovchiligi bilan shug'ullangan qabilalar madaniyatidir. Ularning izlari 300 dan ortiq joydan topilgan. Bu madaniyatga oid dastlabki yodgorlik Dushanbe shahri yaqinidagi Hisor vodiysidan topilganligi sababli Hisor madaniyati nomini olgan. Hisor madaniyatining harakterli tomoni, uning aholisi qayroqtosh tosh qurolariga o'ziga xos ishlov berishgan. Uning ishlanish uslubi o'rta paleolit davridagiga o'xshaydi. Sopol idishlar qo'lda ishlanib, geometrik naqshlar berilgan. Arxeologlar Turtkovul makonidan yarim yerto'la shaklidagi uy qoldig'ini va 4 ta qabrni o'rganganlar. Jasadlar g'ujanak holda yotqizilib, oyoq-qo'llari bog'langan holatda ko'milgan. Bu mozorlar Hisor madaniyatining so'nggi bosqichiga tegishlidir.

G'ulomov Ya, Al-baum L.I, Gerasimov M. larning ma'lumotlarida esa Markaziy Osiyoning neolit davri makoni Hisor madaniyati Hisor-Pomir tog'laridan topib o'rganilgan. Hisor madaniyatining asosiy markazi Tojikiston Respublikasining Hisor-Bobotog'-Qoratog' oralig'idagi yerlar bo'lib, ular mil.avv V-III ming yilliklar bilan belgilanadi. Hisor madaniyati jamoalari sopol idishlar yasab, asosan chorvachilik, ovchilik, qisman dehqonchilik va termachilik bilan shug'ullangan. [3]

O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (2000-2005) sidan foydalanadigan bo'lsak unda Hisor madaniyati mill.avv 6-3 ming yilliklarga oid neolit davri arxeologik majmuasi. Asosiy



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



yodgorliklari Tojikistonning Yovonsu, Vaxsh, Qizilsuv, Kofirnihon daryolari havzalarida qayd etilgan. Hisor madaniyati 1948-yil A.P. Okladnikov kashf etgan; asosiy yodgorliklari Turtkovul, Sayyod, Qozi Berdi va boshqalar. Bu madaniyat davriy jihatdan Kaltaminor va Turkmanistondagi Joytun arxeologik madaniyatlari bilan bir vaqtga to‘g‘ri keladi. Topilmalar tosh va suyakdan yasalgan qurollar har xil maishiy o‘choqlardan iboratdir. Tosh qurollar yasashda ohaktosh, kvarsit, serpantin, yashma kabi materiallardan foydalanilgan. Hozirgacha Hisor madaniyati yodgorliklarida sopol buyumi namunalarini uchramasligi tadqiqotchilar uchun yechilmagan muammo bo‘lib qolmoqda. Holbuki Kaltaminor madaniyati davrida-O‘rta Osiyoda sopol idish tayyorlangani ma‘lum edi. Hisor madaniyati sohiblari xo‘jalik jihatdan endigina o‘troqlashayotgan ovchilar, terimchilik bilan tirikchilik qiluvchilar tashkil etadi deb hisoblash mumkin. Dehqonchilikning ilk belgilari faqat Hisor madaniyatining so‘nggi davrida paydo bo‘lgan.

Joytun madaniyatini N.A. Egamberdievaning manbasida ko‘rishimiz mumkinki Joytun madaniyati O‘rta Osiyoning janubiy-g‘arbiy hududida ilk dehqonchilik bilan shug‘ullangan qabilalar yodgorligidir. Uning izlari faqat Turkmanistonning janubiy-g‘arbiy hududlaridan topilgan. Olimlar uni mill. avv VI ming yilliklar oxiri V ming yilliklar boshlariga oid deb hisoblashadi. Uni A. Kuftin, V.M. Masson, D. Durdiev, O. Berdievlar tadqiq qilgan. Joytun madaniyatiga

Bami, Tog‘oloqtepa, Chag‘illitepa, Munchoqlitepa, Cho‘pontepa, Joytun, Nayzatepa kabi bir qator ibtidoiy dehqonlarning manzilgohlari kiradi. Joytun qishlog‘ida uch qurilish bosqichi aniqlangan. Unda uylar to‘rtburchak shaklida qurilib, devorlari guvaladan ishlangan va somon bilan suvalgan. Uylarning yonida xo‘jalik xonalari - omborxonalar, saroy va o‘ralar ham Joytun uylari devorining qalinligi 30 sm ni tashkil etgan. Har bir uyda (xonadonda) 5-6 kishidan iborat oila yashagan deb taxmin qilingan. Joytun madaniyati yodgorliklaridan topilgan moddiy manbalar ularning dehqonchilik bilan, birga, chorvachilik, ovchilik bilan ham shug‘ullanib o‘z davrining katta yutuqlarini qo‘lga kiritganligini ko‘rsatadi

G‘ulomov Ya, Al-baum L.I, Gerasimov M.larning fikrlarida esa Joytun madaniyatiga mansub qabilalar paxsa va guvalasimon aralashtirib qurilgan uylarda yashab, bo‘yoq bilan naqshlangan idishlardan foydalangan. Joytun makoni ibtidoiy qishloq bo‘lib, u bir necha uylardan tashkil topgan. Uylarning maydoni 25-30 m<sup>2</sup> bo‘lib, ular paxsadan qurilgan. Uylar to‘g‘ri to‘rtburchakli va bir xonali bo‘lib, har bir xonaning o‘choqlari bo‘lgan. Devorlari somon loy bilan suvalib, oxro tabiiy bo‘yoq bilan bo‘yalgan. Turarjoy uylari yonida omborxonalar, saroy, xo‘jalik uchun o‘ralar ham joylashgan. Joytun qishlog‘ida 30 ga yaqin uy bo‘lib, ularda 160-180 kishi yashagan. Bu yerdan boshqoqli don ekinlarining qoldiqlari, munchoq-taqinchoqlar, shaxmat-shashka donalari shaklidagi buyumlar topilgan. [4] Hatto ko‘plab loydan yasab pishirilgan odam va hayvon haykalchalari ham uchraydi. Joytunliklarda ona urug‘i hukmron bo‘lgan. Ular mil. avv VI-V ming yilliklarda yashab asosan, dehqonchilik, chorvachilik qisman ovchilik bilan shug‘ullangan.

Masson. V.M, Massoy. V.M.larning ma‘lumotlarida esa Joytun-O‘rta Osiyoning neolit davriga oid eng qadimgi o‘troq dehqonchilik madaniyati markazlaridan biri (mol. avv. 6-5



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



ming yilliklar). Ashxoboddan 30 km shimolda qadimgi o‘troq dehqonlar qishlog‘i harobosi nomidan olingan. 1952-yildan Janubiy Turkmaniston arxeologiya kompleks ekspeditsiyasi qazish ishlari olib borgan. 10 dan ortiq yodgorliklar (Chag‘illitepa, Pessijiktepa, Cho‘pontepa, Nayzatepa, Joytun va b.) ni tekshirgan. Bu urug‘doshlik manzilgohlarining har biri 0.5-2 ga maydonni egallagan. Aomonli guvaladan qurilgan bir xonali uylar (25-45 m<sup>2</sup>), sathi oq ganchli loy bilan suvalgan, ayrimlari qizil va qora rangga bo‘yalgan. Har bir xonada o‘choq, g‘alla o‘rasi, supa bo‘lgan. [5] Ayrim xonalar o‘rtasida katta otashkada bo‘lib, umumiy sajdagoh vazifasini o‘tagan. Manzilgohlarda ombor, sopol idishlar pishiriladigan maydonchalar bo‘lgan. 3 ta madaniy qatlamdan iborat Joytun manzilgi to‘la o‘rganilgan. Uning maydoni 0.5 ga yuqori qatlami 35-40 xonadan, o‘rta qatlami 29 xonadan iborat. Manzilgohlardan bolalar suyagi topilgan, kattalar tashqariga ko‘milgan. Aholi asosan dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik bilan shug‘ullangan. Aholi chaqmoqtoshdan qirg‘ich, o‘roq, randa, pichoq; suyakdan igna, bigiz va boshqa buyumlar yasagan. Sopol idishlarning sirti qizil angob bilan bo‘yalgan. Tosh va loy (sopol) dan ishlangan ayol va hayvon haykalchalari, tosh, suyak va chig‘anoqlardan yasalgan tumor, munchoq va b. turli taqinchoqlar keng tarqalgan. Joytun madaniyati Kaspiy bo‘yidagi mezolit davri madaniyati asosida vujudga kelgan. U ibtidoiy dehqonchilik madaniyatining jahondagi noyob obidalaridan biri. [6]

M. Xo‘janazarov tomonidan 1986-yili Nurota tog‘ tizmasining janubiy tarmog‘i bo‘lgan Qaroqchitog‘ tizmasi janubiy yon bag‘rida joylashgan to‘sinsoyi qoyatosh rasmlari ustida ilmiy tadqiq ishlari amalga oshirilgan. Yodgorlik to‘g‘risidagi dastlabki ma‘lumot 1977-yil Rostovtsev, T. Omonjulov, G. Vafoev va I. Ivanitskiylar tomonidan berilgan. Qoraqiyasoyi yodgorligida 2009-2010 yillar mobaynida M. Xo‘janazarov va A. Xolmatovlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borildi. 1990-yili M. Xo‘janazarov tomonidan Nurota tog‘ tizmasi Oqtog‘ janubiy yon bag‘ridan Yonboshsoyi qoyatosh rasmlari yodgorligini topdi. Tadqiqotchining fikricha, Yonboshsoy rasmlari xronologik jihatdan mil. avv. 2-ming yillikka oid hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqilligi yillarida Bukantog‘ hududi O‘zbekiston qoyatosh rasmlarini o‘rganish guruhi rahbari M. Xo‘janazarov va Polshalik mutaxassis A. Razvadovskiylar hamkorligida zamonaviy tadqiqot uslublari asosida kompleks ravishda o‘rganilgan. Qoyalardagi ayrim manzara tasvirlarini esa neolit davri bilan ham chegaralash mumkinligi ta‘kidlanadi. Xususan, 1993–1995, 1998, 2002 yillar mobaynida O‘zbekiston-Polsha xalqaro petrogliflar guruhi Nurota tog‘ tizmasi Qoratog‘ janubiy yon bag‘rida joylashgan Sarmishsoy, Markaziy Qizilqum hududidagi Bukantog‘ va Chotqol tizmasidagi Xo‘jakent qoyatosh rasmlari yodgorliklarida ilmiy tadqiqot izlanishlarini olib borgan.

Shimoliy Nurota tog‘ tizmasining janubiy yon bag‘irlarida hali jiddiy ilmiy izlanishlar amalga oshirilmagan edi. 2010-yilning yanvar oyida A. Xolmatov Noqi qishlog‘i atrofidagi Noqisoy, Ustuksoy, Savraksoy va Gadoyxona soylari yon qayirlaridagi grandiorit qoyalarga urib cho‘kichlab ishlangan yangi qoyatosh rasmlari mavjudligi aniqlandi. Bu yodgorliklarda olib borilgan dastlabki tadqiqotlar natijasida ko‘plab tasvirlar xaritaga olindi. Ular mazmuni



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



xilma-xil bo‘lib, odam, yovvoyi buqa (tur), tog‘ echkisi, bug‘u, ot, tuya, bo‘ri, it, arab va kirill harflaridagi yozuvlar hamda noaniq tasvirlardan iborat. Bu petrogliflarning ishlanish texnikasi, chizilish uslublari, saqlanish va quyosh nurida quyish darajalari turlicha bo‘lib, bunday xilma-xillik ularning turli davrlarga oidligidan dalolat beradi. Shu nuqtai nazardan, Noqisoy qoyatosh rasmlari ustida olib borilgan dastlabki tadqiqot natijasi va ularni boshqa yodgorlik rasmlari bilan solishtirib o‘rganishlarimiz, bizga Noqisoydagi eng qadimgi tasvirlarning bronza davriga oid deb aytishimiz imkonini berdi.

2010–2017 yillarda bu tadqiqotlar davom ettirilib, Chorbog‘soy, Ilonbuloqsoy, Quduqchachoy, Beklarsoy, Tomchisoy, G‘oldirotasoy, Boshbuloq, Zobota, Shahidsoy, Toshqo‘rg‘on, Biybuloqsoy, Potlomasoy, Sulluklisoy, Olmalisoy, Oqchopsoy, ArxarpO‘shsoyi, Noqisoy kabi dara va soyilarning yon qayirlarida ko‘plab yangi qoyatosh rasmlari aniqlanib, xaritaga olindi va birinchi marotaba fanga kiritildi.

2011 yilning avgust oyida bu yodgorliklarning ba‘zilarida M.Xo‘janazarov rahbarligida O‘zbek-Polsha xalqaro espeditsiya a‘zolari Polshaning Vraslov universiteti arxeologiya instituti xodimlari B.Stanislavskiy, J.Stanislavskiy va muallif ishtirokida ilmiy tadqiqot ishlari olib

jamoalariga oid yodgorliklar topilib, tadqiq etilgan. Mazkur moddiy madaniyat fanga “Sazag‘on madaniyati” nomi bilan kiritilgan. Sazag‘on 1 yodgorligi 1966 yilda O.Ibragimov tomonidan ochilgan va u Samarqand shahridan 27 km uzoqlikdagi masofada Sazag‘on soyi yonbag‘ridan topilgan. Shu yili D.N.Lev tomonidan yodgorlikda tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu erdagi tabiiy erroziyaga uchrab O‘yilib ketgan terrasadan madaniy qatlam qoldiqlari aniqlangan.

Ushbu makon 1967-1968 yillarda D.N.Lev hamda M.J.Jo‘raqulovlar tomonidan O‘rganilgan. 1971-1977 yillarda olib borilgan qazish ishlari natijasida madaniy qatlamlar aniqlangan. Dastavval D.N.Lev Sazag‘on 1 makonini neolit davri bilan sanalab, uni Kaltaminor madaniyatiga xos, deb topgan. Keyinchalik qayta tadqiqotlar natijasida yodgorliklarning materiallari M.Jo‘raqulov tomonidan statistik va qiyosiy jihatdan to‘liq o‘rganildi va Kaltaminor materiallari bilan taqqoslandi Natijada Sazag‘on 1 industriyasida plastinasimon tosh qurollar emas, balki mikrolitoidlik darajasi yuqori darajada ravnaq topganligi aniqlandi. Sazag‘on topilmalari orasida uni Samarqand so‘ngi paleolit makoni bilan bog‘lovchi elementlar ham mavjud. 1966 yili Sazag‘on 2 makoni topiladi. U Sazag‘on soyining yuqori qismida, terrasaning chap qirg‘og‘ida joylashgan. [7]

Ushbu joyda M.J.Jo‘raqulov boshchiligidagi SamDU arxeologiya kafedrasida tomonidan 1971-1982 yillarda olib borilgan qazishmalar natijasida 800 m<sup>2</sup> maydonda madaniy qatlamlar ochib o‘rganilib, ko‘plab arxeologik materiallar olindi. Tosh buyumlardan tashqari suyak qurollar, faunistik qoldiqlar, taqinchoqlar, sopol buyumlar va birinchi marta kraniologik materiallar topilgan qo‘lga kiritilgan materiallar Sazag‘on 1 nikiga o‘xshash, lekin son jihatidan ancha ko‘pligi bilan ajralib turadi. Bu erdan qurollarning ba‘zi bir yangi tiplari topildi (geometrik ko‘rinishdagi buyumlar). Sopol buyumlari esa ko‘p hollarda





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



neolitdan keyingi davrlarga xosdir. Biroq ayrim qo'lda ishlangan chaplama sopol buyumlar qoldiqlari neolit davri materiallari bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.N.A.Egamberdieva
- 2.G'ulomov Ya.O'zbekiston arxeologiya Toshkent 1956.37-38 bet.
- 3.Al- baum L.I."Bolaliktepa". Toshkent 1960
- 4.Gerasimov M."Lyudi kamennoga veka"M.1964
- 5.Masson V.I."Poselenie Djaytun"M.1971
- 6.Masoy V.M.Srednyaya Aziya i Blijniy Vostok.M- L.1964
7. Джуракулов М.Д. «История изучения каменного века Средней Азии». Автореферат дисс.к.и.н. – Самарканд. 1966, –С. 9.

